

“UMRA” ZIYORATINI AMALGA OSHIRISH SHARTNOMASI

13.04.2026yil

Toshkent sh.

Ushbu shartnoma **XXX** mas’uliyati cheklangan jamiyati nomidan Ustav asosida ish yurituvchi jamiyat (2025-yil **XXX**- **XXX**dagi **XXX** №**XXX**-sonli litsenziya) direktori **XXX**, (bundan keyin “Jamiyat” deb yuritiladigan) bir tomondan hamda Umra ibodatini **Ismoilov Ibrohim Baxromovich** (bundan keyin “Ziyoratchi” deb yuritiladi) quyidagi shartnomani tuzdilar.

1. Shartnoma predmeti

- 1.1. “Jamiyat” “Ziyoratchini” Umra ziyoratini amalga oshirishini o‘z zimmasiga oladi.
- 1.2. Umra ziyorati mazkur shartnomaning 2.1 bandiga asosan tegishli to‘lovlarni amalga oshirgandan hamda lozim darajada kontingent yig‘ilgandan so‘ng amalga oshiriladi.

2. Shartnoma summasi va hisob-kitob tartibi

- 2.1. Bir ziyoratchi uchun bajaruvchi (_____) 14 kun davomidagi ziyorat narxining to‘lov miqdori **12000000** so‘mni tashkil etadi.
- 2.2. Mazkur to‘lovni “Ziyoratchi” shartnoma imzolangan kuni “Jamiyatning” bankdagi hisob raqamiga to‘lashi shart.

3. Jamiyatning majburiyatlari

- 3.1. Ushbu shartnomani bajarish uchun “Jamiyat” quyidagi majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi:
 - Umra ziyorati uchun (borib kelish kuni) **12.04.2026** yildan **18.04.2026** yilgacha;
 - Saudia Arabistoniga kirish uchun Umra vizasi;
 - Madinada 3 (uch) kecha 2 (ikki) mahal ovqat bilan yashash;
 - Makkada 11 (o‘n bir) kecha 3 (uch) mahal ovqat bilan yashash;
 - Madina va Makkada bir marotaba tarixiy joylar ziyorati.
- 3.2. Kerakli sayohat hujjatlarini, transfer xizmatlarini va ziyorat uchun turar joyni tashkil qilish, b
ron qilish.
- 3.3. Ziyoratchilarga umra ibodatini to‘g‘ri bajarish bo‘yicha ma’lumot (umra qo‘llanmasi) yetkazish hamda har bir guruhga bir nafar diniy bilimga ega, umra amallarini puxta biluvchi guruh rahbari (ellikboshi) biriktirish.
- 3.4. Ziyoratchi umra ziyorati davomida betob bo‘lganda unga tibbiy yordam ko‘rsatish majburiyatini zimmasiga oladi. Ziyorat davomida tibbiy xizmat bepul bo‘lib, ziyoratchi tomonidan to‘langan “Tibbiy sug‘urta” hisobidan qoplanadi.
- 3.5. “Jamiyat” “Ziyoratchi”ning pul va shaxsiy qimmatbaho buyumlarining xavfsizligiga mas’ul emas.

4. Ziyoratchi majburiyatlari

- 4.1. “Ziyoratchi” Umra dasturi uchun (umra vizasi, mehmonxona, tibbiy sug‘urta, kamzul, sumka, umra qo‘llanmasi, ichki transfer, oziq-ovqat va tibbiy xizmatlar) belgilangan to‘lovni to‘liq amalga oshirishni o‘z zimmasiga oladi.
- 4.3. SAP hududida, jumladan, Makka va Madina shaharlarida, ikki Muqaddas haram hududida tozalik, sanitariya-gigiena qoidalariga rioya qilish hamda haram xizmatchilarini ko‘rsatma va buyruqlariga itoat etadi.
- 4.5. Umra ziyorati davomida ziyoratchi Saudiya Arabistonida ma’lum haq evaziga yoki haqsiz tarzda ishlashi, shuningdek xech qanday noqonuniy namoyishlarda ishtirok etishi mumkin emas.
- 4.6. Ziyoratchi ishchi guruhi va guruh rahbarining ko‘rsatma va tavsiyalariga to‘liq amal qilish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.
- 4.7. Yuqoridagi bandlarda keltirilgan qoidalarga amal qilmaganlik uchun Saudiyaning tegishli idoralari tomonidan jarima belgilangan holda jarimani o‘z hisobidan to‘lash majburiyatini oladi.

5. Tomonlar javobgarligi

5.1. Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun o'zaro javobgardirlar.

5.2. Ziyoratchi ushbu shartnoma talablarini to'liq bajargan holda Jamiyat O'zbekiston Respublikasi va SAPning amaldagi qonunchiligiga muvofiq, ushbu shartnomadan kelib chiqadigan barcha shartlarni to'liq bajarish majburiyatini oladi.

5.3. Jamiyat o'ziga bog'liq bo'lmagan, masalan, ob-havo sharoiti va texnik sabablarga ko'ra parvozning kechikishi, Umra safarining bekor qilinishi yoki to'xtatilishi, shaxsiy sharoitlar va sabablar yoki fors-major holatlari tufayli Jamiyatning nazorati ostida bo'lmagan sabablarga ko'ra turar joy, xizmat ko'rsatish va transport va boshqa xizmatlar uchun xarajatlarni qoplash uchun javobgar emas.

5.4. Davlat organlari, vakolatli organlar yoki mansabdor shaxslarning qarori bilan ziyoratchiga yoki unga hamrohlik qiluvchi shaxslarga mamlakatdan chiqib ketish yoki SAPga kirish, uchoqda uchish yoki bron qilingan mehmonxonada qolish imkoniyati rad etilsa; tegishli hujjatlarning yo'qligi; qonunni buzish; 3.1., 3.2., 3.4-bandlarni buzish; ushbu shartnoma yoki jamoat xulq-atvorining boshqa qoidalariga muvofiq, ziyoratchi o'zining noqonuniy xatti-harakati tufayli yuzaga keladigan barcha qo'shimcha xarajatlarni to'laydi va ziyoratchini deportatsiya qilish bilan bog'liq xarajatlarni qoplashgacha bo'lgan to'liq mulkiy javobgarlikni o'z zimmasiga oladi va Jamiyatga to'langan pullar qaytarilmaydi.

5.5. Har bir ziyoratchi va unga hamroh bo'lgan shaxslar tashrif buyuradigan mamlakat va O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq rasmiylashtirilgan shaxsiy hujjatlar va zarur ishonchnomalarning asl nusxalariga ega bo'lishi kerak. Agar ushbu shart bajarilmasa, Jamiyat yuzaga keladigan har qanday oqibatlar uchun javobgar emas.

5.6. Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni ijro etmasligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida, shuningdek ushbu shartnomada nazarda tutilgan talablar asosida javobgardirlar.

5.7. Agar Ziyoratchi xizmatlarni taqdim etish muddati boshlanish sanasidan avval xizmatdan foydalanishni rad etsa, quyidagi tartibda jarima to'lovi to'lanadi:

- safar boshlanish sanasidan 20 kunlik muddat qolganda xizmatdan foydalanishni rad etsa, umumiy ziyorat summasidan 20% miqdorda;
- safar boshlanish sanasidan 15 kunlik muddat qolganda xizmatdan foydalanishni rad etsa, umumiy ziyorat summasidan 50% miqdorda;
- safar boshlanish sanasidan 10 kunlik muddat qolganda xizmatdan foydalanishni rad etsa, umumiy ziyorat summasidan 80% miqdorda;
- safar boshlanish sanasidan 5 kunlik muddat qolganda xizmatdan foydalanishni rad etsa, umumiy ziyorat summasidan 100% miqdorda.

5.8. Agar mijoz o'zi uchun bron qilingan yoki sotib olingan aviachipta, mehmonxona, transportdan bosh tortsa va boshqa xizmatlarni rad etish sabablaridan qat'i nazar, buyurtmachini tashuvchi aviakompaniya, mehmonxona yoki mezbon qoidalariga muvofiq jarima to'laydi.

6. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA IMZOLARI:



ZIYORATCHI:

Ismoilov Ibrohim

Baxromovich

Manzil: Toshkent shahar,

Olmazor tumani,

Xonchorbog' MFY,

Do'stlik ko'chasi,

6-uy, 28-xonadon

Telefon: +998334423343